





2
0
2
4

№ 3



Muhandislik va Iqtisodiyot



ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



Muhandislik va Iqtisodiyot

Elektron nashr.
166 sahifa. Sentabr-oktabr, 2024-yil.

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Eshov Mansur Po'latovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M u a s s i s: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

H a m k o r l a r i m i z:

- Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
- Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
- Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
- Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
- Toshkent davlat transport universiteti
- Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
- Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
- Jizzax politexnika instituti

Muhandislik va Iqtisodiyot

EKSPERTLAR

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt

Elektron nashr.
160 sahifa. Sentabr-oktabr, 2024-yil.

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.



MUNDARIJA

Aksiyadorlik jamiyatlari investision faoliyatini rivojlantirishning muhim jihatlari.....	12
Abdurazakova Nargiza Rixsibaevna	
Buxgalteriya hisobida majburiyatlar va ularni tan olish mezonlari.....	19
Boltaev Abror Sayitmuradovich	
Banklararo raqobatning bank tizimi barqarorligiga ta'siri.....	25
Ortiqov Oybek Abdullaevich	
The improvement of funding business operations for the local enterprises in the Republic of Uzbekistan through issuing financial securities by means of the Tashkent Stock Exchange	34
Abduganiev Abdulaziz	
Shaxs ishbilarmonlik muloqotining subyekti sifatida.....	39
Turayeva Dinara Tulkunovna	
O'zbekiston Respublikasi mehnat bozorida kambag'allik darajasining aholi turmush farovonligiga ta'siri.....	44
Xayitov Sherbek Naimovich	
Tijorat banklari aktivlarini boshqarish va daromadligini oshirish masalalari	52
Masharipov Maxmud Bekturdievich	
Auditorlik tekshiruvining o'tkazishda dalil to'plash va natijalarni umumlashtirishda tahliliy amallarni qo'llanishi.....	59
Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	
Moliyaviy globalizatsiya sharoitida xorijiy mamlakatlar banklarida an'anaviy operatsiyalar amaliyoti va uni O'zbekiston bank tizimi faoliyatiga qo'llash yo'llari	70
Raxmatov Temur Sotiboldievich	
Innovatsion menejment yondashuvlari asosida sanoat korxonalari faoliyatini boshqarish va tashkil etish	79
Bakayeva Mohira Ahrorovna	
Tijorat banklarida investitsion risklarni boshqarishni takomillashtirish.....	85
Burxonov Asliddin Asqar o'g'li	
Elektron sigaretalar hamda qizdirilgan tamaki iste'moli ortishi va uni tartibga solishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	91
Mirzaliev Sanjar Maxamatjon o'g'li, Boykabilov Bahodir Mustafaeovich, Qoraboev Bobur Umarovich, Ugay Darya Sergeevna, Mirzalieva Surmaniso Alisher qizi	
Makroiqtisodiy siyosat va mehnat bozorining aloqadorligi.....	99
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li	
Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moliyaviy jarayonlarini axborot tizimlari orqali tashkil etishning amaliy jihatlari	105
Muslitdinov Nodir	
Transmission mexanizm foiz kanalining bozor foiz stavkalariga ta'siri	111
Absalamov Akram Tolliboyevich	
Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda nomutanosibliklarni bartaraf etishning iqtisodiy samaradorligi.....	118
Madraximov Kaxramon Egamberganovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish jarayonidagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari	126
Nasurova Kamolaxon Ravshanovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida qimmatli qog'ozlar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish	133
Rashidov Abror Ro'zimurod o'g'li	



Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot auditining xususiyatlari.....	138
Nazarova Kamola Sattoral qizi	
O'zbekiston to'qimachilik tarmog'ida "tejamkor ishlab chiqarish" kontseptsiyasidan foydalanish holati tahlili	146
Butaev Dowlatali Inomovich	
Capital asset pricing model evaluation in production companies.....	152
Bunyod Usmonov	
Moliyaviy nazoratni tashkil qilish va amalga oshirishga metodologik yondoshuvlar.....	160
Hakimov Nodir Nazarovich	
TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINING IQTISODIY MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	166
Azimov Ibrohimjon Soibjon o'g'li	

TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINING IQTISODIY MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Azimov Ibrohimjon Soibjon o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti

Logistika kafedrası stajor o'qituvchisi

E-mail: azimovibrohimjon04@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy logistika tizimining muhim va tez rivojlanayotgan yo'nalishi bo'lgan transport logistikasi nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqotda jo'natuvchidan qabul qiluvchigacha bo'lgan logistika jarayonlarini kompleks boshqarish, ya'ni tashish, omborlash, qadoqlash, qayta ishlash va axborot oqimlarini muvofiqlashtirishning vaqt va xarajatlarni kamaytirishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, logistika infratuzilmasi elementlari, logistika xarajatlari tarkibi hamda mamlakat logistika salohiyatini baholash mezonlari tizimlashtiriladi. Natijada milliy transport-logistika tizimining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy xulosalar shakllantiriladi.

Kalit so'zlar: transport logistikasi, tranzit salohiyat, transport-logistika tizimi, logistika infratuzilmasi, logistika xarajatlari, multimodal tashish, logistika markazlari, bojxona logistikasi.

Abstract: This article examines transport logistics as an important and rapidly developing area of the modern logistics system from both theoretical and practical perspectives. The study analyzes the role of integrated management of logistics processes from sender to receiver—including transportation, warehousing, packaging, processing, and coordination of information flows—in reducing time and costs. It also systematizes the elements of logistics infrastructure, the structure of logistics costs, and the criteria for assessing a country's logistics potential. As a result, scientific and practical conclusions are formulated to enhance the efficiency and competitiveness of the national transport and logistics system.

Keywords: transport logistics, transit potential, transport and logistics system, logistics infrastructure, logistics costs, multimodal transportation, logistics centers, customs logistics.

Аннотация: В статье теоретически и практически исследуется транспортная логистика как важное и быстро развивающееся направление современной логистической системы. В исследовании анализируется роль комплексного управления логистическими процессами от отправителя до получателя, включая перевозку, складирование, упаковку, переработку и координацию информационных потоков, в снижении затрат и времени. Также систематизируются элементы логистической инфраструктуры, структура логистических затрат и критерии оценки логистического потенциала страны. В результате формируются научно-практические выводы, направленные на повышение эффективности и конкурентоспособности национальной транспортно-логистической системы.

Ключевые слова: транспортная логистика, транзитный потенциал, транспортно-логистическая система, логистическая инфраструктура, логистические затраты, мультимодальные перевозки, логистические центры, таможенная логистика.

KIRISH

Jahonda yuz berayotgan integratsiya jarayonlarida transport va logistika infratuzilmalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Mazkur sohalarni rivojlantirish vazifalari jahon transport va logistika tizimi (the global transport and logistics system) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, jahon transport xizmatlarining YAIM tarkibidagi miqdori 4,9 trln AQSh dollari (7,3%) hajmida baholanib, yiliga 115 mlrd tonna yuk va 1 trln dan ortiq yo'lovchilar tashiladi, transport infratuzilmasida band bo'lgan xodimlar soni esa 100 mln kishini tashkil etadi.

Dunyoda zamonaviy logistika texnologiyalari muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Shu boisdan iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishni ta'minlash maqsadida sanoat tarmog'ida "transport-logistika tizimlari" va "transport-logistika markazlari"ni tashkil etish zarurati yuzaga kelmoqda.



Yangi O'zbekistonda iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida transport kommunikatsiyalarini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada 2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida transport va logistika xizmatlari bozori hamda infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo'l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish, avtomobil yo'llari tarmog'ini jadal rivojlantirish, transport sohasida tashqi savdo uchun "yashil koridorlar"ni yaratish hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va tranzit yuk hajmini 15 mln tonnaga yetkazish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tarmoqning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy va uslubiy jihatlari R.Solow, Y.Shumpeter, W.Rostow tomonidan o'rganilgan¹. Lekin mazkur tadqiqotlar fundamental tavsif kasb etib, masalaga umumiy yondashilgan va aynan transport-logistika tizimini iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish muammolari tadqiq etilmagan.

MDH davlatlari olimlari G.Bubnova va A.Vovk mintqa transport va logistika infratuzilmalari muammolari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan².

Bevosita transport tarmog'i va transport-logistika tizimi samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish kabi masalalarga bag'ishlangan ilmiy ishlarni shartli ravishda uch guruhga, ya'ni o'zbekistonlik, MDH davlatlari olimlari hamda boshqa xorij davlatlari tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ajratish mumkin. Jumladan, O'zbekistonda transport va logistika tizimlarini rivojlantirish muammolari G.Samatov, A.Gulamov, va J.Fayzullayev kabi mamlakatimiz olimlari tomonidan bajarilgan tadqiqot ishlarida yoritilgan³.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot transport logistikasi va mamlakat tranzit-logistika salohiyatini oshirish masalalarini tizimli yondashuv asosida o'rganishga qaratildi. Ish jarayonida bir-birini to'ldiruvchi ilmiy usullar majmuasidan foydalanildi.

Tadqiqot yakunida mantiqiy umumlashtirish va xulosa chiqarish usullari asosida transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, tranzit operatsiyalarini optimallashtirish hamda logistika xarajatlarini kamaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda yirikroq tizimning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'luvchi transport masalasiga yangicha yondashuv zarur bo'lib, tashish jarayonidagi barcha jihatlarni — yukni yuboruvchidan qabul qiluvchigacha, yukni qayta ishlash, qadoqlash, saqlash, joylashtirish va yetkazib berishdagi axborot oqimini qamrab olgan holda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb topilmoqda. Bu esa transport-logistika infratuzilmasini yaratish hamda uni transport-logistika tizimining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Tashishni amalga oshirish bilan bog'liq hamda unga hamkorlik qiluvchi transportning turli turlarini kompleks tadqiq etishni nazarda tutgan transport tizimidan farqli ravishda, "logistika" atamasining qo'shilishi vaqt va xarajatlarni minimal darajaga tushirishni ta'minlaydi.

Dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo'lmagan O'zbekiston Respublikasi uchun geografik jihatdan qulay joylashganligi tranzit masalasi hamda transport xizmatlarining yangi istiqbolli bozorlarini izlash zaruratini yuzaga keltiradi. Xorijiy mamlakatlarning ko'p yillik tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat milliy iqtisodiyotida mahsulotning yakuniy qiymatida logistika xarajatlarini kamaytirish bilan birga, aynan mamlakatning tranzit salohiyatini oshirish logistika rivojlanishining muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Logistika va logistika faoliyati ahamiyatini kompleks tarzda tushunish uchun logistika asosiy tushunchalarini interpretatsiya qilish talab etiladi. 1-jadvalda mazkur atamaga turli mualliflar tomonidan berilgan ta'riflar keltirilgan.

- 1 Solow, R. (1956). A contribution to the theory of economic growth. The Quarterly Journal of Economics, 70(1), 65–94. <https://doi.org/10.2307/1884513>; Шумпетер Й. Теория экономического развития. М.: Прогресс, 1982.; Rostow W. Politics and the Stages of Growth. 1971.
- 2 Бубнова, Г. В. Логистическое взаимодействие компаний-операторов при организации вагонопотоков по экономическим критериям. Г. В. Бубнова, А. А. Ерофеев, П. Г. Корнев // Экономика железных дорог. – 2012. – № 10. – С. 85.; Вовк, А. А. Развитие системы показателей использования подвижного состава.
- 3 Саматов Г.А. Дороги, которые мы выбираем. Они приближают Узбекистан к самым отдаленным частям света. // Рахбар-Менеджер, №32-33, 1999; Gulamov A.A. Temir yo'l kompaniyasining asosiy kapitalini iqtisodiy jihatdan baholash metodologiyasini takomillashtirish ("O'zbekiston temir yo'llari" AJ misolida). Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent 2020; Fayzulayev J.S. Temir yo'l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent 2022;

1-jadval. “Logistika” atamasi ta’rifi⁴

Ta’rif	Manba
Logistika-bu xom ashyo, materiallar, tugallanmagan ishlar, tayyor mahsulotlar, xizmatlar va tegishli (xarajatlarni kamaytirish nuqtai nazaridan) ma’lumot zaxiralarini rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish jarayoni. samarali (xarajatlarni kamaytirish nuqtai nazaridan)kirish nuqtasi oqimi va oqim oqimi. iste’molchilarning ehtiyojlarini to’liq qondirish uchun ushbu oqimni iste’mol qilish.	Council of Logistics Management (U.S.).
Logistika-bu maqsadlarga erishish uchun ma’lum bir iqtisodiy tizimda materiallar, xizmatlar, tegishli ma’lumotlar va pul vositalari oqimini tashkil etish va optimallashtirish haqidagi fan.	Anikina B. A., Rodkinoy T. A. Osnovy logistiki: Uchebnik / — M.: Prospekt, 2014. (Logistika i upravlenie sepyami postavok. Teoriya i praktika). — 40 b.
Logistika – iqtisodiyotning ishlab chiqarish, transport, bank, bojxona, axborot va boshqa kichik tizimlarining oqilona hamkorlik qilishi hisobiga tovarlar harakatini optimallashtirish maqsadiga qaratilgan, moddiy, axborot, moliyaviy va boshqa shu kabi oqimlarni boshqarish usullari va uslublari to’g’risidagi fan	http://www.logistika.uz – transportnary informatsionno logistiches-kiy portal.
Logistika – fan, uning predmeti tovarlar va xizmatlarning yetkazib beruvchilardan iste’molchilarga tomon oqilona harakatlanish jarayonini tashkillashtirish, tovar zaxiralarini boshqarish, tovarlar harakati infratuzilmasini tuzishdan iborat, ya’ni tovarlar harakatlanishi jarayonida axborot va moddiy oqimlarni boshqarish to’g’risidagi fan yo’nalishi	Samatov G. A., Rustamova I.B., Galimova F.R. Logistika fanidan amaliyot darslari uchun Uslubiy qo’llanma. – T.: ToshDAU nashr tahririyati.-2013.
“Logistika” atamasi moddiy (xom ashyo, yarim tayyor fabrikatlar, butlovchi qismlar, tayyor tovarlar) oqimlardan va xom ashyo manбайдan boshlab to tayyor mahsulotning yakuniy iste’molchisiga qadar bo’lgan tegishli (axborot, moliyaviy va servis) oqimlarni tashkillashtirish, ularni boshqarish va ular harakatini optimallashtirish bilan bog’liq amaliy faoliyatga oid	Fayzullayev J.S. Development of theoretical foundations management of transport-logistics system. //European Applied Sciences, 2018. № 2, - B. 7-10.

Tranzit mamlakat tomonidan olinadigan foyda, birinchi navbatda, transport va u bilan bog’liq xizmatlar (logistika hamda yo’l bo’yi servisi) uchun to’lanadigan haq ko’rinishidagi pul tushumini ta’minlashdan iborat bo’ladi. Tranzit salohiyati yuqori bo’lgan mamlakatga transport infratuzilmasini rivojlantirish uchun investitsiyalar yo’naltiriladi hamda zamonaviy transport texnologiyalari tatbiq etiladi. Bundan tashqari, tranzit mamlakatning xalqaro sahnadagi nufuzi, e’tibori va ta’sirini kuchaytirishning ishonchli vositasi vazifasini ham bajaradi.

Logistika obyektini eng qisqa muddatlarda (yoki ko’zda tutilgan muddatlarda), shuningdek yetkazib berish obyektiga imkon qadar kamroq zarar yetkazgan holda yetkazib berish mumkin bo’lgan marshrut optimal marshrut deb hisoblanadi. Logistika obyekti — inson faoliyatining barcha sohalaridagi tovar aylanish sohasi bo’lib, shu jumladan axborot, moliyaviy va boshqa xizmatlar ham unga kiradi. Logistika predmeti esa korxonalar, tashkilotlar va aholi ehtiyojiga muvofiq tarzda tayyor mahsulot, xom ashyo va butlovchi mahsulotlarni o’z vaqtida hamda eng kam xarajatlar bilan yetkazib berish usullari va uslublari bilan iborat.

Fikrimizcha, logistikaning asosiy maqsadi ushbu soha hamda umumiy logistika tizimi uchun optimal bo’lgan tovar-moddiy oqimlar harakatini (joydan-joyga ko’chirishni) tashkil etishdan iborat. Logistika vazifalari esa muayyan sifatga ega bo’lgan va talab etilgan miqdordagi tovarning optimal vaqtda hamda minimal logistika xarajatlari bilan kerakli joyda mavjud bo’lishini ta’minlashdan iborat.

4 O’rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.




Mahalliy va xorijiy adabiyotlar sharhi logistika tizimining alohida kichik tizimlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatadi:

- tovar mahsulotini sotish va realizatsiya qilish bilan bog'liq sotish logistikasi;
- buyurtmalarni uzatish, ularni qabul qilish va bajarish masalalarini hal qiluvchi buyurtmalar logistikasi;
- subyektning iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun zarur miqdordagi zaxiralar mavjudligini ta'minlash va ularni boshqarishni nazarda tutuvchi zaxiralar logistikasi;
- biznes-logistikada mijozlarga zamonaviy va samarali xizmat ko'rsatishni ta'minlovchi servis logistikasi;
- logistika zanjiri subyektlari o'rtasida tovar-moddiy oqimlar bilan bog'liq operatsiyalar natijasida yuzaga keladigan pul munosabatlarini ifodalovchi moliyaviy logistika;
- tovar mahsulotlari chiqindilarini utilitatsiya qilish va qayta ishlash bilan bog'liq ekologik logistika;
- yuklarni rasmiylashtirish, nazorat qilish va ularni mamlakat chegarasi orqali o'tkazish bilan shug'ullanuvchi bojxona logistikasi.

Yevropa logistika assotsiatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, zamonaviy logistika texnologiyalarini (3PL va 4PL provayderlari) qo'llash tovar ishlab chiqarish vaqtini 25 foizga, ishlab chiqarish xarajatlarini 35 foizgacha kamaytirish hamda moddiy zaxiralar hajmini 30 dan 70 foizgacha tejash imkonini beradi.

Bugungi kunda korxonalar uchun xorijiy mijozlarga mahsulotni bevosita yetkazib berishda uzilishlarning oldini olish, yetkazib berish xarajatlarini kamaytirish, hujjatlarni tezkor rasmiylashtirish hamda transport-logistika xarajatlarini aniq hisoblash dolzarb va muhim masalalardan hisoblanadi. Logistika xarajatlari — logistika xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar bo'lib, ular quyidagi asosiy xizmatlardan tashkil topadi (1-rasm).



1-rasm. Logistika xizmatlari ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar tarkibi va me'yorlari⁵

Logistika infratuzilmasi — mahsulotni xarid qilish, yetkazib kelish, saqlash va uni iste'molchigacha yetkazib berish tizimining ishlashini ta'minlaydigan o'zaro bog'liq elementlar majmui hisoblanadi. Logistika infratuzilmasida quyidagi asosiy tarkibiy qismlar ajratib ko'rsatiladi:

- logistika infratuzilmasini tashkil etish, rivojlantirish va uni boshqarish bilan bog'liq umumiy masalalar;
- transport oqimlari va turli transport turlari orqali yuklarni harakatlantirish jarayonida ularni boshqarish;
- liniyadagi harakatlanuvchi tarkib ishini boshqarish (dispetcherlik va tashishlarni marshrutlashtirish);
- yukni saqlash va qo'shimcha ishlov berish, unga qo'shilgan qiymat yaratish maqsadida logistika markazlarining transport-ombor xo'jaliklari;
- magistral va ko'makchi, shoxobcha yo'l tarmoqlari;
- transport faoliyatining o'ziga xos jihatlari tufayli yuzaga keladigan tebranishlarni kamaytirish maqsadida omborxona binolari va xonalari, ombor, ishlab chiqarish hamda kommunikatsiya uskunalarining samarali ishlashi.

Talab va taklif o'zgarishlariga moslashish, tranzit operatsiyalarining yuqori ko'rsatkichlariga erishish uchun infratuzilmani muntazam ravishda modernizatsiya qilib borish zarurati yuzaga keladi. Logistika samaradorligi bevosita infratuzilmaga bog'liq bo'lib, logistika infratuzilmasi yaxshilanishi bilan davlatning transport salohiyati ham ortib boradi.

Logistika salohiyatining rivojlanishi taqdim etilayotgan xizmatlar turlarining kengayishi va logistika xizmatlari sifatining oshishiga bog'liq. Bunda xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat logistika infratuzilmasi elementlarini yaratish va rivojlantirishda hamkor hamda tashabbuskor bo'lib faoliyat yuritadilar.

⁵ Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mamlakat transport kompleksini baholashda foydalaniladigan asosiy yo'nalishlardan biri logistika salohiyati hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda logistika salohiyatini baholashda quyidagi ko'rsatkichlar keltirilgan (2-jadval).

2-jadval. Mamlakat logistika salohiyatini baholash mezonlari⁶

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birliklari
1.	Logistika xizmatlarining yo'lga qo'yilganligi (logistika markazlari, terminallar)	har 1000km/ta
2.	Infrastrukturaning mavjudligi	har 1000km/ta
3.	Yuk avtomobilini chegara punktidan o'tib ketish vaqti	soatda
4.	Eksport operatsiyasi uchun ketadigan o'rtacha vaqt	kun
5.	Import operatsiyasi uchun ketadigan o'rtacha vaqt	kun
6.	Koridordan foydalanganlik uchun xarajatlar	AQSh dollarida, har 500 km ga 20 tonna yuk uchun
7.	Koridor bo'ylab xarakatning o'rtacha tezligi	km/soat
8.	Yukni manzilga o'z vaqtida yetkazish	kechikish, soatda
9.	Yukni kuzatib borish va nazorat xarajatlari	AQSh dollarida
10.	Multimodal logistik markazlar faoliyatini yo'lga qo'yilganligi	Har bir mintaqa davlatlarida kamida 1 ta

Tashishni amalga oshirish bilan bog'liq va unga hamkorlik qiluvchi transportning turli turlarini kompleks tadqiq etishni ko'zda tutgan transport tizimidan farqli ravishda, "logistika" atamasining qo'shilishi vaqt va xarajatlarni minimal darajaga tushirishni ta'minlaydi.

Logistika infratuzilmasi — iste'molchilar talabini to'liqroq qondirish maqsadida xom ashyo, yarim fabrikatlar va zarur axborotni to'plash, saqlash, ishlab chiqarilgan joydan iste'mol joyigacha tashishning texnologik va samarali operatsiyalarini rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilish jarayonidir.

Transport-logistika tizimi deganda iste'molchilar va xizmat ko'rsatuvchilar, shuningdek ular uchun boshqaruv tizimidan foydalanuvchilar, transport vositalari, axborot yo'llari, inshootlar va boshqa mulklar majmui tushuniladi. Transport-logistika tizimining quyidagi xususiyatlari ajratib ko'rsatiladi:

– transport tizimida moddiy nuqtai nazardan yangi mahsulot ishlab chiqarilmaydi, balki uning yordamida tayyorlangan tovarlar mo'ljallangan joyiga yetkaziladi. Transport xizmatlari yakuniy mahsulot qiymatining bir qismi hisoblanadi;

– transport-logistika tizimi faoliyatining natijasi korxonalar va aholiga ko'rsatilgan xizmatlardan iborat bo'ladi. Transport xizmatlariga boshqa xizmat turlariga xos bo'lgan xususiyatlar — ularning natijasini obyektiv baholashning murakkabligi, xizmatni ko'rsatuvchi shaxs (tashkilot)dan ajratib bo'lmazligi, xizmatlar zaxirasini yaratish imkonining yo'qligi xosdir;

– ushbu xizmatlarni ko'rsatish faqat yoqilg'i, elektr energiyasi va boshqa resurslardan foydalanish orqali amalga oshiriladi;

– transport-logistika tizimida ko'paytirilgan kapital faqat pul shaklida namoyon bo'ladi;

– ko'pincha transport xizmatlarida tashish jarayoni turli transport turlarining kombinatsiyasi orqali amalga oshiriladi.

6 Zohidov A.A. Markaziy osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takkomillashtirish. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent 2018. – 47.




Logistika — tizimdagi moddiy va ular bilan bog'liq axborot, moliyaviy hamda servis oqimlarining shakllanish joyidan iste'mol qilinadigan joyigacha bo'lgan harakatini boshqarish, tizim maqsadlariga erishish va resurslarni optimallashtirishga qaratilgan fan sohasi hisoblanadi.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, logistikani qo'llash:

- zaxiralar darajasini 30–50 foizga kamaytirish;
- mahsulotlar harakatlanish vaqtini 25–45 foizga qisqartirish;
- avtomobillarda yuk tashish xarajatlarini 20 foizgacha kamaytirish imkonini beradi.

Logistik strategiyaning asosida logistik vazifa, ya'ni logistikaning “yetti qoidasi” (7R — right) yotadi. Aynan ushbu yetti qoida korxonaning istiqboldagi harakatlari va qarorlarini belgilab beradi, ya'ni:

1. muayyan sifatda;
2. talab qilingan mahsulotni;
3. zarur hajmda;
4. aniq iste'molchiga;
5. minimal xarajatlar bilan;
6. belgilangan vaqtda;
7. lozim bo'lgan joyga yetkazib berishni ta'minlash.




2-rasm. Transport-logistika tizimining kompleks tuzilmasi⁷

Transport-logistika tizimining umumiy ko'rinishi transport kompleksining har qanday darajasi uchun xos bo'lib, miqdoriy va sifat jihatidan tavsiflari hamda uni tashkil etuvchi elementlarning o'lchamlari bilan farqlanadi. Umumlashgan tarzda transport-logistika tizimining kompleks tuzilmasi 2-rasmda tasvirlangan.

Ekspeditorlik faoliyati deganda yuk tashishni tashkil etish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat tushuniladi. Bu, jumladan, yuklarni jo'natish va qabul qilish, transport bilan bog'liq boshqa xizmatlarni bajarish yoki ko'rsatish hamda ekspeditorlik xizmatlarini ko'rsatish shartnomasiga muvofiq amalga oshiriladi. Ekspeditorlar — bu pul mukofoti evaziga mijozlarga xizmat ko'rsatish (ekspeditorlik), yuk almashinuvini tashkil etish, shuningdek vakolatli organlar bilan kelishilgan holda transport va ekspeditorlik xizmatlarini bajaruvchi yoki ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlardir.

Tizimli yondashuv asosida transport-logistika tizimining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi uning obyektlari va subyektlarini, rivojlantirish tamoyillarini, shuningdek mexanizmning maqsad va vazifalarini hamda davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlarini o'z ichiga oladi (3-rasm).

⁷ Olib borilgan tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tuzilgan.



3-rasm. Sanoat korxonalarida transport-logistika tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning umumiy tasnifi⁸

Transport-logistika tizimi samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yo'nalishlardan biri — "yuklarni kuzatib borish va nazorat xarajatlari" me'yori 200 AQSh dollarini tashkil etishi kerak bo'lsa-da, bugungi kunda ushbu ko'rsatkich ikki baravar oshib ketgan. Yukni manziliga o'z vaqtida yetkazish bo'yicha kechikish me'yori 24 soatgacha bo'lishi nazarda tutiladi, ammo amalda 40 soatgacha kechikish holatlari kuzatilmoqda. Temir yo'l transportida koridor bo'ylab harakatning o'rtacha tezligi soatiga 60 km dan yuqori bo'lishi ijobiy baholanadi, holbuki yuk tashishning amaldagi o'rtacha tezligi 30–35 km/soatni tashkil etmoqda. Mazkur holatlar mamlakatning logistika samaradorlik indeksining oshishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ekspeditorlik faoliyati deganda yuk tashishni tashkil etish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat tushuniladi. Bu, jumladan, yuklarni jo'natish va qabul qilish, transport bilan bog'liq boshqa xizmatlarni bajarish yoki ko'rsatish hamda ekspeditorlik xizmatlarini ko'rsatish shartnomasiga muvofiq amalga oshiriladi. Ekspeditorlar — bu pul mukofoti evaziga mijozlarga xizmat ko'rsatish (ekspeditorlik), yuk almashinuvini tashkil etuvchi, shuningdek vakolatli organlar bilan kelishilgan holda transport va ekspeditorlik xizmatlarini bajaruvchi yoki ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlardir.

Transport-ekspeditsiya kompaniyasi (TEK) yuklarni yuk jo'natuvchidan (mijozdan) yuk oluvchiga (qabul qiluvchiga) yetkazib berishni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi kompaniyadir. Transport va logistika markazlari (TLM) esa transport va logistika faoliyati ishtirokchilariga transport-logistika xizmatlari, yuk tashish va boshqa tegishli xizmatlar majmuasini taqdim etishga mo'ljallangan markazlardir. Bunday markazlarda yuk mashinalari uchun avtoturargohlar mavjud bo'lib, ayrim hollarda ekspeditorlar tomonidan transport kompaniyalariga bepul joylar taqdim etiladi. Rivojlangan transport-logistika markazlari avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish, bojxona rasmiylashtiruv, vositachilik va boshqa xizmatlarni ham taklif etadi.

Transport-logistika tizimining iqtisodiy mexanizmini rivojlantirishning nazariy asoslarida keltirilgan "transport-logistika tizimi salohiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar" qismida besh yo'nalish bo'yicha salohiyatni baholovchi ko'rsatkichlar tizimi keltirilgan bo'lib, u o'z tarkibiga 35 ta ko'rsatkichni oladi. Mazkur ko'rsatkichlar transport-logistika tizimining iqtisodiy faoliyati nuqtai nazaridan logistika va transport sohalariga ta'sir etuvchi rivojlanish hamda raqobatbardoshlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Transport-logistika tizimi salohiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar temir yo'l transport-logistika tizimining rivojlanish holatini, ortda qolayotgan yo'nalishlarini aniqlash, temir yo'l transport-logistika faoliyatining rivojlanish tendensiyalarini belgilash hamda taklif etilgan ko'rsatkichlar asosida sohaga oid chora-tadbirlar ijrosini monitoring qilish imkonini beradi.

8 Olib borilgan tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tuzilgan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Reversiv logistika doirasida ba'zida yangi tara materiallarini xarid qilish uchun mablag' tejash maqsadida ko'p marotaba ishlatiladigan tarani tovarlarni saqlash va tashish uchun takroran foydalanish yoki xavfli yoxud bir martalik qadoqlash materiallarini ixtisoslashgan ekologik korxonalarda utilizatsiya qilish va qayta ishlash uchun yig'ib olish masalalari hal etiladi. Bundan tashqari, iste'molchi yaroqsiz yoki nuqsonli deb topgan, yoxud ishlatilmay qolgan ortiqcha tovarlar ham omborga qaytarilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, transport-logistika tizimi mamlakat tranzit-logistika salohiyatini shakllantiruvchi asosiy yo'nalishga aylanib bormoqda. Aynan transport-logistika tizimining iqtisodiy mexanizmini rivojlantirish va takomillashtirish, shuningdek mamlakatda logistika faoliyatini amalga oshirish uchun axborot va qonunchilik asoslarini yaratish mamlakatning tranzit jihatdan jozibadorligini oshiradi. Bu esa ushbu yo'nalishdagi ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga hamda tranzit-logistika faoliyatidan yuqori daromad olish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. The World Bank. World Development Indicators. <http://data.worldbank.org/indicator>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. Solow, R. (1956). A contribution to the theory of economic growth. The Quarterly Journal of Economics, 70(1), 65–94. <https://doi.org/10.2307/1884513>
4. Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: Прогресс, 1982; Rostow, W. Politics and the Stages of Growth. – 1971.
5. Бубнова Г. В., Ерофеев А. А., Коренев П. Г. Логистическое взаимодействие компаний-операторов при организации вагонопотоков по экономическим критериям // Экономика железных дорог. – 2012. – № 10. – С. 85.
6. Бовк А. А. Развитие системы показателей использования подвижного состава.
7. Amirov L. F., Fayzullaev J. S., Rahimov H. S., Shayusupova N. T. (2021). EMM of effective management of the integrated transportation and logistics system. E3S Web of Conferences, Vol. 244, 08022. EDP Sciences.
8. Jalolova M., Sangirova U., Yakubov I., Rahimov H., Kholmatova N. (2022). Economic efficiency of the transport system and logistics in the Republic of Uzbekistan. Transportation Research Procedia, 63, 1061–1066.
9. Samatov G'. A., Komiljonov B. I., Galimova F. R. Logistik boshqaruv konsepsiyalari va modellari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 232 b.
10. Рахимов Х. (2020). Повышение экономической эффективности развития инфраструктуры железнодорожного транспорта // Экономика и образование. – 1(1). – С. 189–194.
11. Zohidov A. A. Markaziy Osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018. – 47 b.
12. Лукинский В. С. Модели и методы теории логистики: учебное пособие. 2-е изд. – СПб.: Питер, 2007. – 448 с.

Muhandislik va Iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**

